

SECTION II  
GLOBAL PROBLEMS OF DEVELOPMENT OF INNOVATIVE METHODS IN  
EDUCATION AND THEIR SOLUTIONS

OLIIY TA'LIM TIZIMIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK  
MAHORATNING O'RNI

*I. Tuxtasinov<sup>1</sup>*

*Annotatsiya:*

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasidagi mavjud ta'lim sohasini yanada rivojlantirish, ta'lim sifatini tubdan isloh qilish va o'qituvchilarning mavqeini oshirish, yosh avlodning bilim salohiyatini yuksaltirish va xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha bir qancha islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini takomillashtirish, xalqaro standartlar talablariga mos keladigan samarali ta'lim tizimini yaratish bo'yicha 05.06.2018-yildagi PQ-3775 - sonda qabul qilingan ta'lim sifatini oshirish to'g'risidagi qarorni misol keltirish mumkin. Ushbu qarorga ko'ra, har bir oliy ta'lim muassasalari ta'lim sifatini xalqaro ta'lim darajasiga olib chiqish, har bir professor-o'qituvchilarning faoliyatini, bilimini, shu bilan bir qatorda pedagogik mahorati va ko'nikmasini yanada rivojlantirish eng muhim talablardan biri qilib belgilanishi bejizga emas.

*Kalit so'zlar:* ta'lim sifati, ta'lim tizimi, xalqaro ta'lim, pedagogik mahorati va ko'nikma, "Dars tahlili"

*doi:* <https://doi.org/10.2024/6zwo8e84>

---

Bugungi kunda yurtimizda sodir bo'layotgan ulkan o'zgarishlarning asosiy negizi bevosita sifatli ta'lim jarayoniga borib taqaladi. Chunki hozirgi zamon talablariga ko'ra, ta'lim tuzilmasi, malaka ko'nikmasi va sifatli dars berish mohiyatini yanada yuksak darajaga ko'tarish ta'lim-tarbiya sohasining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida isloh qilinmoqda. Bunday islohotlarning negizi esa ilg'or pedagogik mahorat va yangi texnologiyalarning debochasidir.

Ta'lim jarayonidagi pedagogik faoliyat va qarashlar ilg'or pedagogik tajribalarga borib taqaladi. Bunda professor-o'qituvchining o'z vazifasiga jiddiy hamda ijodiy yondashishi yoki yosh avlodni har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalash shu bilan bir qatorda sifatli dars berish va o'qitish ko'nikmalarini rivojlantirish pedagoglarga qo'yilgan eng muhim talablardan biri hisoblanadi. Shuni ta'kidlash joizki, har bir professor-o'qituvchilar talaba yoki yoshlarning qobiliyatini va bilim salohiyatini oshirishlari, rivojlanayotgan davrda darslarga puxta tayyorgarlik ko'rgan holda kirishlari eng muhim va dolzarb ehtiyojlardan biriga aylanmoqda. Bugungi kunda Oliy ta'lim tizimining oldida turgan eng ustuvor masalalarda biri, har bir pedagogning o'z mashg'ulotlarini samarali olib borish uchun har tomonlama yetuk bo'lishi, o'z kasbi va yo'nalishida yetarli bilimli va tajribaliligi, darslarda zamonaviy pedagogik metod va texnologiyalardan foydalanishda milliy va xorijiy tajribani

---

<sup>1</sup> *Tuxtasinov Ilxomjon Madaminovich, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektori, Professor*

uyg'unlashtirishi hamda qator kasbiy ko'nikma va mahoratni egallaganligi muhim jihatlardan hisoblanadi. Buning uchun esa pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish va mustahkamlash, hamda zamonaviy bilim va pedagogik ilg'or texnologiyalarni qo'llash, mamlakatimizni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish va yetakchi dunyo reytinglariga olib chiqish uchun hissa qo'shuvchi malakali mutaxassislarni tayyorlash, tajribali pedagog kadrlarni yetkazib berish, sohaga ilg'or ta'lim texnologiyalarni joriy qilish muhim ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida keltirilgan bir nechta ustuvor yo'nalishlarda qamrab olingan. Chunki bugungi rivojlanayotgan zamonda ta'lim sifatini oshirish va malakali kadrlarni tayyorlashda har bir pedagog xodim zamon talablariga javob bera oladigan holatda darslarni mukammal olib borish va talaba yoshlarning qobiliyatini rivojlantirishi muhim ehtiyojlardan biriga aylanmoqda.

Ayni damda mashg'ulotlarda zamonaviy va eng so'nggi yetakchi texnologiyalardan foydalanish pedagogik mahoratning ham o'sishiga olib keladi. Sifatli ta'lim berishda har bir pedagog xodim o'z ustida tinimsiz izlanishi, ta'lim jarayonini o'rganishi, o'z dunyo qarashini boyitishi va talabalarning darsga, kasbga bo'lgan qiziqishini oshiruvchi ko'plab metodlarni o'rganishi va amalda qo'llashi muhimdir. Hozirgi taraqqiyot davrida o'qituvchilarning pedagogik faoliyati samarali bo'lishi va malaka talablariga javob berishida bilim, kuzatuvchanlik, tekshirish, o'z-o'zini baholash, nutq savodxonligi, kelajakni ko'ra bilish, talabalar bilan ishlash, har xil ziddiyatlarni mohirlik va epchillik bilan bartaraf etish, yosh avlodni bilim olishga qiziqtirish kabi jihatlarni qamrab oladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'qituvchilik kasbi murakkab va mas'uliyatli jarayondan iborat, kasblar orasida sharafiligi va muntazam ravishda izlanishlardan iborat ekanligi bilan ajralib turadi. Bunda esa o'qituvchining shaxsiy fazilatlarini va kasbiy xususiyatlariga alohida to'xtalib o'tish lozim. Chunki ushbu omillar yuksak pedagogik mahoratning oshishida ijobiy natija beradi. Shu o'rinda mashhur pedagog olim N.A. Lebednik ta'kidlashicha, ta'lim berish tizimida pedagog nafaqat kasbiy mahoratga, balki ijtimoiy yetuklikka ham ega bo'lishi kerak. Va bunda pedagogik mahoratning o'ziga xos strukturaviy jihatlari shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim tizimida avvalambor har bir professor-o'qituvchi quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi maqsadga muvofiq<sup>1</sup>. Bular:

1) O'quv-mashg'ulot jarayonini zamon talablari darajasida tashkillashtirish, va shu bilan bir qatorda pedagogik-psixologik va metodik ma'lumotlarga ega bo'lishi lozim;

2) Fanlarni o'qitishda hozirgi zamonaviy va eng so'nggi axborot texnologiyalaridan foydalanish va dars strukturasi zamonaviy tendensiyalar bilan bog'lab o'tishi;

3) Talabalarning qiziqishi, intilishlari, o'z vaqtida ularning qiyinchiliklarini anglash, talabalarning xarakteri va qobiliyatidan kelib chiqqan holda mashg'ulotlarda turli xil zamonaviy metodlarni tanlash har bir talabaga individual yondashish va darslarni muvafaqqiyatli tugatishiga harakat qilish;

4) O'z sohasi bo'yicha dars berayotgan fanning predmetini mukammal bilishi, va o'z bilim salohiyatini amalda qo'llay olishi;

5) Muntazam ravishda o'z shaxsiy sifatlarini oshirishi va nutqning ravonligini, tashkilotchilik qobiliyatini yuksaltirish, liderlik xususiyatini oshirishi va talabalar bilan ishlash mahoratini takomillashtirishi kerak.

Buyuk nemis pedagogi Adolor Disterverg o'qituvchining doimiy ravishda fanlarni mutolaa qilishi va o'z ustida tinimsiz ishlashi haqida quyidagilarni ta'kidlagan edi:

<sup>1</sup> A.Xoliqov "Pedagogik mahorat" O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010-yil 21-oktyabridagi 396-sonli buyrug'iga asosan 5140800 - "Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi"ning talabalari (o4quvchilari) uchun darslik sifatida tasdiqlangan. (Guvohnoma Jfe 396-19) 19-b

“O’qituvchi muntazam ravishda fan bilan shug’ullanmog’i lozim. Aks holda u qurigan daraxst va toshga o’xshab qoladi. Qurigan daraxt va tosh meva bera olmaydi, kelajakda bunday o’qituvchidan hech qanday natija kutib bo’lmaydi”.

Darhaqiqat, o’qituvchilik mahoratining shakllanishi, uning o’z havbatida o’z ustida tinimsiz izlanishi, ijod qilishi va pedagogik tafakkurini kengaytirib borishi bilan bog’liqdir.

Hozirgi paytda O’zbekiston Respublikasida yosh o’qituvchilarning dars o’tish mahoratini, kasbiy salohiyatini va bilim-ko’nikmalarini muntazam ravishda rivojlantirib borish maqsadida keng ko’lamli talab va takliflar ishlab chiqilmoqda. Xususan O’zbekiston davlat jahon tillari universitetida ham ta’lim sifatini nazorat qilish va yanada takomillashtirish maqsadida, har bir professor o’qituvchilarning o’z ustida ishlashi va o’zini-o’zi baholashi, mashg’ulotlarga doimiy ravishda mukammal tayyorlangan holda tashrif buyurishi, shu bilan bir qatorda dars so’ngida o’z-o’zini baholashi uchun “Dars tahlili” yo’riqnomasi ishlab chiqilgan va barcha o’qituvchilarga taqdim etilgan. Ushbu dars tahliliga ko’ra o’qituvchi o’z kasbiy mahoratini oshirish va ta’lim jarayonini sifatli qilish uchun quyidagi xususiyatlarga amal qilishi lozim:

1. Dars boshlash mahoratiga va har bir o’tilgan mavzuni talabalar bilan takrorlab olish qobiliyatiga ega ekanligi.
2. O’qituvchi talabalarga taqdim qilayotgan material va mashqlarning zamonaviy metodlarga mosligi va darsda qo’shimcha tarqatma materiallarning mavjudligini ta’minlashi.
3. Dars davomida o’qituvchi berilgan topshiriqlar asosida talabalarni yakka, kichik va katta guruhlarda ishlatish mahoratiga ega bo’lishi.
4. Dars davomida berilgan mashq va topshiriqlarni obyektiv va holisona baholashi va talabalarining bilim ko’nikmalarini muntazam ravishda nazorat qilishi.
5. Har bir mashg’ulot davomida interaktiv faol o’qitish uslubidan foydalangan holda, talabalarni darsga qiziqtirish va faollikka chaqirishi.
6. *Blended learning, flipped learning* tendensiyalaridan foydalangan holda har bir mavzuni mantiqan va mazmunan oxirigacha yetkazishi.
7. O’quv xonalarida mavjud zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda video, PPT, slayd va turli hil ko’rgazmalardan foydalanishi.
8. Pedagogik madaniyatiga ega bo’lishi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirib o’tilgan talab va takliflar shubhasiz ta’lim sifatini yanada yaxshilashga va darsning samaradorligini oshirishga katta hissa qo’shadi. Bu esa har bir o’qituvchi kasbiy mahoratga o’z mehmati, ijodkorligi, o’quv jarayonini mustaqil boshqara olishi, ishning maqsadini aniq reja qilgan holda faoliyat yuritishi bilan muvaffaqiyatga erisha olishidan darak beradi.. Bunda ko’nikma, malaka, qobiliyat, iste’dod, iqtidor kabi xususiyatlar birinchi o’rinda turadi. Demak, har bir professor-o’qituvchi yangi yosh avlodning hayotda o’z o’rnini topishiga va mustaqil O’zbekistonning kelajagini eng rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo’shish uchun ma’sul ekanligini anglagan holda, o’z kasbiga mehr berishi, muntazam ravishda o’z ustida ishlashi, bilim salohiyatini oshirishi zarurligini alohida ta’kidlab o’tish muhimdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

- [1]. Omonov H.T., Xo’jayev N.X. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.* – Toshkent, 2009, *Iqtisod-moliya nashriyoti* (9-10 b)
- [2]. Azizxo’jayev N.N. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.* – Toshkent, 2006/ *O’zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi nashriyoti* (136-138b).

### International Conference

#### ADVANCED METHODS OF ENSURING QUALITY OF EDUCATION: PROBLEMS AND OPPORTUNITIES

[3]. Xoliqov A. "Pedagogik mahorat". O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010-yil 21-oktyabridagi 396-sonli buyrug'iga asosan 5140800 – "Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishining talabalari (o'quvchilari) uchun darslik sifatida tasdiqlangan. (Guvohnoma Jfe 396-19) 19-b

[4]. Tursaotov, A. (2023). General characteristics of the organization of continuous pedagogical experimental work. *Science and innovation*, 2 (B6), 20-26.

[5]. Sidikovich, K. S. (2023). Integrative-Pedagogical Features of The Development of a Sense of Patriotism in Future Educators. *European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices*, 1(2), 259-264.

[6]. <https://lex.uz/docs/-3765586>